

PAPER

META TA'LIM TEXNOLOGIYALARI ASOSIDA OLIY TA'LIM MUASSASASI TALABALARINING TA'LIM SAMARADORLIGINI OSHIRISH

O'rolboyeva Durdona Sayfiddin qizi ^{1,*}

¹JDFU tayanch-doktorant

* o'rolboyeva@gmail.com

Abstract

Mazkur maqolada oliy ta'lim muassasalarida (OTM) ta'lim jarayonini zamonaviy ta'lim texnologiyalari asosida tashkil etish orqali talabalarining ta'lim samaradorligini oshirish masalalari yoritilgan. Tadqiqot davomida raqamli ta'lim texnologiyalari, interfaol metodlar va kompetensiyaviy yondashuvning ta'lim natijalariga ta'siri tahlil qilindi.

Key words: ta'lim texnologiyalari, ta'lim samaradorligi, oliy ta'lim, raqamli ta'lim, interfaol metodlar, kompetensiyaviy yondashuv.

Kirish

So'nggi yillarda dunyo miqyosida ta'lim tizimida kuzatilayotgan globallashtirish, raqamlashtirish va innovatsion rivojlanish jarayonlari oliy ta'lim muassasalarining faoliyatiga tub o'zgarishlar kiritmoqda. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi, bilimlar iqtisodiyotiga o'tish jarayoni hamda mehnat bozorida raqobatning kuchayishi oliy ta'lim tizimidan mutlaqo yangi yondashuvlarni talab etmoqda. Bugungi kunda OTM bitiruvchisi nafaqat nazariy bilimlarga ega bo'lishi, balki mustaqil ta'lim

olish, muammoli vaziyatlarni tahlil qilish, axborotni tanqidiy baholash va zamonaviy texnologiyalardan samarali foydalanish kompetensiyalariga ega bo'lishi zarur.

Shu nuqtayi nazardan, OTMlarda ta'lim samaradorligini oshirish masalasi dolzarb ilmiy-amaliy muammo sifatida namoyon bo'lmoqda. Ta'lim samaradorligi talabalarining bilimlarni o'zlashtirish darajasi, amaliy ko'nikmalarning shakllanishi, o'quv motivatsiyasi hamda mustaqil ta'lim olish qobiliyatlari bilan belgilanadi. An'anaviy o'qitish usullari ushbu talablarni to'liq qondira olmasligi sababli, zamonaviy ta'lim

Compiled on: December 17, 2025.

Copyright: ©2025 by the authors. Submitted to *Advances in Science and Education* for possible open access publication under the terms and conditions of the [Creative Commons Attribution \(CC BY\) 4.0 license](#).

texnologiyalarini ta'lim jarayoniga joriy etish zarurati yuzaga kelmoqda.

Ta'lim texnologiyalari o'quv jarayonini loyihalash, tashkil etish, amalga oshirish va baholashning tizimli yondashuvini ifodalaydi. Ular ta'lim jarayonida pedagog va talaba faoliyatini aniq rejalashtirish, natijaga yo'naltirish hamda o'quv jarayonining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Raqamli ta'lim platformalari, masofaviy ta'lim tizimlari, aralash ta'lim modellari va interfaol metodlar OTM ta'lim jarayonining ajralmas qismiga aylanib bormoqda.

Muammoning dolzarbligi

Zamonaviy oliy ta'lim tizimida mavjud muammolardan biri — talabalarining ta'lim jarayonidagi passivligi va bilimlarni yuzaki o'zlashtirishidir. Ko'plab OTMlarda hanuzgacha o'qituvchiga yo'naltirilgan an'anaviy dars mashg'ulotlari ustunlik qiladi. Bunday sharoitda talabalar tayyor bilimlarni qabul qiluvchi subyekt sifatida namoyon bo'lib, ularning mustaqil fikrlashi va ijodiy faolligi yetarli darajada rivojlanmaydi. Bundan tashqari, raqamli texnologiyalarning tez sur'atlar bilan rivojlanishiga qaramay, ularni ta'lim jarayoniga integratsiyalash masalasida muayyan muammolar mavjud. Jumladan:

ta'lim texnologiyalaridan foydalanishning metodik asoslari yetarli ishlab chiqilmagan;

o'qituvchilarning raqamli kompetensiyalari turlicha darajada;

texnologiyalar ko'pincha pedagogik maqsadsiz, faqat texnik vosita sifatida qo'llanilmoqda.

Mazkur holatlar ta'lim texnologiyalarining real samaradorligini pasaytiradi. Shu sababli, ta'lim texnologiyalaridan foydalanishning pedagogik imkoniyatlarini ilmiy asosda o'rganish va ularning ta'lim samaradorligiga ta'sirini aniqlash muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqotning maqsadi va vazifalari

Mazkur tadqiqotning asosiy maqsadi — oliy ta'lim muassasalarida ta'lim texnologiyalaridan foydalanish orqali talabalarining ta'lim samaradorligini oshirishning pedagogik mexanizmlarini aniqlash va ilmiy asoslashdan iborat. Ushbu maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilandi:

meta ta'lim texnologiyalari va ta'lim samaradorligi tushunchalarining ilmiy-pedagogik mohiyatini tahlil qilish;

OTM ta'lim jarayonida qo'llanilayotgan zamonaviy ta'lim texnologiyalarining turlarini aniqlash;

meta ta'lim texnologiyalarining talabalarining akademik o'zlashtirishi va o'quv motivatsiyasiga ta'sirini empirik o'rganish;

tajriba-sinov ishlari asosida meta ta'lim texnologiyalarining samaradorligini aniqlash;

ta'lim jarayonini takomillashtirish bo'yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.

Adabiyotlar sharhi (Literature Review)

Ta'lim texnologiyalari va ta'lim samaradorligi muammosi zamonaviy pedagogika fanining yetakchi tadqiqot yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Xususan, oliy ta'lim tizimida innovatsion texnologiyalarni joriy etish, ularning pedagogik imkoniyatlari va ta'lim natijalariga ta'siri masalalari xalqaro va mahalliy olimlar tomonidan keng o'rganilgan.

Pedagogik adabiyotlarda "ta'lim texnologiyasi" tushunchasi ta'lim jarayonini oldindan loyihalash, amalga oshirish va baholashning tizimli usuli sifatida talqin etiladi. Anderson (2020) ta'lim texnologiyalarini o'quv jarayonini talaba shaxsiga yo'naltirishga xizmat qiluvchi muhim pedagogik vosita sifatida e'tirof etadi. OECD (2019) tadqiqotlariga ko'ra, raqamli ta'lim muhitida bilimlarni individuallashtirilgan tarzda o'zlashtirish imkoniyati kengayadi, bu esa ta'lim samaradorligiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Mahalliy olimlar tadqiqotlarida ham ta'lim texnologiyalarining ahamiyati alohida qayd etiladi. Ularning fikricha, ta'lim texnologiyalari o'qituvchi va talaba faoliyatini hamkorlik asosida tashkil etish, o'quv jarayonida interfaollikni ta'minlash hamda ta'lim natijalarining kafolatlanganligiga erishish imkonini beradi. Interfaol ta'lim metodlari muammoli ta'lim, loyiha asosida o'qitish va kollaborativ o'rganish metodlarining ta'lim samaradorligiga sezilarli ta'sir ko'rsatishini tasdiqlaydi. Aralash ta'lim modeli esa auditoriya mashg'ulotlari va masofaviy ta'limni integratsiyalash orqali talabalarining bilim olish jarayonini faollashtiradi.

Biroq adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki,

aksariyat tadqiqotlar ta'lim texnologiyalarining ayrim jihatlariga bag'ishlangan bo'lib, ularning OTM sharoitida ta'lim samaradorligiga kompleks ta'siri yetarli darajada empirik asosda o'rganilmagan.

Tadqiqot metodologiyasi va modeli

Mazkur tadqiqot pedagogik tajriba-sinov dizayni asosida olib boriladi. Tadqiqot jarayoni meta ta'lim texnologiyalarining oliy ta'lim muassasasi talabalarini tayyorlashning pedagogik tizimini takomillashtirishga yo'naltirildi. Tadqiqot kvazi-eksperimental model asosida o'tkaziladi, nazorat va tajriba guruhlar tashkil qilinadi.

Tadqiqotda ishtirok etuvchi talabalar ikki guruhga ajratiladi: nazorat guruhi va tajriba guruhi. Guruhlar yosh, o'zlashtirish darajasi va ta'lim yo'nalishi bo'yicha tenglashtiriladi.

Tajriba-sinov jarayonida:

1. Diagnostika bosqichi: Boshlang'ich bilim darajasi, motivatsiya va mustaqil ta'lim ko'nikmalari aniqlanadi.

2. Shakllantiruvchi bosqich: Tajriba guruhida meta ta'lim texnologiyalariga asoslangan o'qitish joriy etiladi (raqamli platformalar, interfaol metodlar, aralash ta'lim).

3. Yakuniy baholash: Akademik o'zlashtirish, motivatsiya va mustaqil ta'lim ko'nikmalari qayta baholanadi.

Tajriba-sinov metodlari:

Pedagogik testlar – akademik darajani o'lchash
So'rovnoma – motivatsiya va munosabatni baholash

Pedagogik kuzatuv – darsdagi faollikni tahlil qilish

Statistik tahlil – natijalarni ishonchli baholash

Baholash mezonlari quyidagilardan iborat:
Akademik o'zlashtirish darajasi

O'quv motivatsiyasi

Mustaqil ta'lim ko'nikmalari

Darsdagi faollik

Xulosa (Conclusion)

Meta ta'lim texnologiyalari asosida olib borilgan ta'lim jarayonida akademik o'zlashtirish oshadi, o'quv motivatsiyasi va faollik ortadi, mustaqil ta'lim ko'nikmalari mustahkamlanadi. Meta ta'lim texnologiyalarini tizimli qo'llash dars

jarayonini optimallashtiradi, talabalarning faol ishtirokini rag'batlantiradi va ta'lim natijalarini yaxshilaydi. Xulosa sifatida aytish mumkinki, ta'lim texnologiyalarini tizimli va metodik asosda qo'llash oliy ta'limda talabalarning ta'lim samaradorligini sezilarli darajada oshirishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli farmoni – "Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida".
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 31-dekabrda 737-sonli qarori – "Maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi"
3. Karimova R.X. (2021). Pedagogik texnologiyalar: nazariya va amaliyot. Toshkent: TDPU nashriyoti.
4. G.M.Musaxonova (2022) Innovatsion pedagogika. Toshkent: "Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi".
5. Xolboyeva M.T. (2023). Metata'lim yondashuvi asosida pedagogik kompetensiyalarni rivojlantirish. "Pedagogik izlanishlar" jurnali, №2 (96), 34–40.
6. Flavell, J. H. (1979). Metacognition and cognitive monitoring: A new area of cognitive-developmental inquiry. *American Psychologist*, 34(10), 906–911.
7. Anderson, L. W., Krathwohl, D. R. (2001). A taxonomy for learning, teaching, and assessing: A revision of Bloom's taxonomy of educational objectives. New York: Longman.
8. Anderson, T. (2020). *The Theory and Practice of Online Learning*. Athabasca University Press.
9. OECD. (2019). *Innovating Education and Educating for Innovation*. OECD Publishing.
10. Salomon, G. (2018). *Distributed Cognitions: Psychological and Educational Considerations*. Cambridge